

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

amalda ax loqiy muammolarni hal qilish, yosh avlodda kimgadir taqlid qilish istagini uygʻotish, boshqalardan farqlash mumkin - xuddi atrofimizdagi odamlar haqida [3].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Kamoliddin Behzod asarlaridan oʻqituchilar tarixiy aspektlarni, axtlari asosida pedagogik mahoratni oʻrganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashrafi M.M. Ot Bexzada do Riza-yi Abbasi. Razvitiye miniatyury nachalo veka. –Tashkent:SMI-ASIA, MISAI, 2011. – 176 s.
2. Badiiy taʼlimda innovation jarayonlar: rivojlanish strategiyasi, nazariyasi va amaliyoti./T.:Impress media. – 2021. -172 bet.
3. Belinskaya N. Miniatura kak istochnik izucheniya izobrazitel'nogo iskusstva XV-XVII vv. // Ocherki istorii i teorii kul'tury tadjikskogo naroda: Sb. statey. Dushanbe, 2001. - S. 91 — 110.

QURILISH VA ARXITEKTURA SOHALARIDA KADRLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARIGA YECHIM VA TAKLIFLAR

Ashurova Maxfuza Ikrombayevna

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish” kafedrasi
oʻqituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada qurilish va arxitektura sohalarda kadrlarni tayyorlash va ularning salohiyatini oshirish haqida umumiy va qisqacha maʼlumot berilgan. Qurilish va arxitektura sohalarda kadrlarni tayyorlash, ularning bilim va koʻnikmalarini yangilash, zamonaviy texnologiyalarni oʻzlashtirish kabi masalalar mamlakatning taraqqiyotini taʼminlashda katta ahamiyatga ega. Qurilish va arxitektura sohalarda kadrlar tayyorlashning muammolariga yechimlar koʻrib chiqilgan.

Аннотация

В статье даны общие и краткие сведения о подготовке кадров для сферы строительства и архитектуры и повышении их квалификации. Вопросы подготовки кадров для сферы строительства и архитектуры, повышения их

знаний и навыков, а также освоения современных технологий имеют большое значение для обеспечения развития страны. Рассматриваются пути решения проблем подготовки кадров для сферы строительства и архитектуры.

Annotation

This article provides general and brief information on the training of personnel in the construction and architecture sectors and their capacity building. Issues such as training personnel in the construction and architecture sectors, updating their knowledge and skills, and mastering modern technologies are of great importance in ensuring the development of the country. Solutions to the problems of training personnel in the construction and architecture sectors are considered.

Kalit so'zlar

Bilim va ko'nikmalar, zamonaviy texnologiyalar, kadrlar tayyorlash.

Ключевые слова

Знания и навыки, современные технологии, подготовка кадров.

Keywords

Knowledge and skills, modern technologies, personnel training.

Kirish

Qurilish va kommunal sohalarda kadrlarni tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini yangilash, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish kabi masalalar mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Qurilish va kommunal soha kadrlar tayyorlash zarurati qurilish va kommunal sohalarda, ularning yuqori ish hajmi va murakkabligi sababli, malakali kadrlar bilan ta'minlanishi kerak. Qurilish inshootlarini qurish, ta'mirlash va ekspluatatsiya qilishda professional bilimlar, texnologik ko'nikmalar va xavfsizlik standartlarini bilish zarur. Kommunal sohalarda esa xizmatlar, energiya ta'minoti, suv va chiqindilarni boshqarish tizimlarini samarali ishlatish uchun ham yuqori malakali mutaxassislar kerak.

Asosiy qism

Qurilish va arxitektura sohalarda kadrlar tayyorlashning muammolariga yechimlar.

1. Malaka va bilimning eskirishiga bog'liq muammolarni ko'rib chiqish.

Qurilish va arxitektura sohalarda ishlovchi mutaxassislarning bilimlari va ko'nikmalari zamonaviy texnologiyalar va me'yorlarga mos kelmasligi mumkin. Bu esa nafaqat sifatli va xavfsiz inshootlar qurilishiga, balki atrof-muhit va odamlarning xavfsizligiga ham ta'sir qiladi.

2. Ta'lim tizimi va amaliyotning yetarli darajada mos kelmasligi

Qurilish va arxitektura sohalarda ta'lim olish tizimi, amaliy tajriba va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirishda ayrim kamchiliklarga ega. Bu sohalarda ishlovchi mutaxassislarning amaliy ko'nikmalari va nazariy bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar va kurslar kam sonli va ko'p holatlarda talabga javob bermaydi.

3. Texnologik yangiliklarga qiziqishning pastligi

Soha vakillari va ishchilar yangi texnologiyalar va ilg'or metodlarni o'rganishga tayyor emaslar. Ko'p hollarda, qurilish va arxitektura sohalarda eski texnologiyalar va usullar ishlatilmoqda, bu esa samaradorlikni pasaytiradi.

4. Kadrlar almashinuvi va ish o'rinlarining barqarorsizligi

Qurilish va arxitektura sohalarda ishchilarning tez-tez almashinuvi, malakali kadrlarni saqlashdagi qiyinchiliklar va yangi kadrlar yetishmasligi muammolarini keltirib chiqaradi. Bu esa uzoq muddatli va barqaror rivojlanishni ta'minlashni qiyinlashtiradi.

5. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi

Qurilish va arxitektura sohalarda kadrlarni tayyorlashda ta'lim tizimini takomillashtirish zarur. Ta'lim darsliklari va o'quv dasturlari zamonaviy talablar va texnologiyalarni inobatga olgan holda yangilanishi kerak. Ta'lim muassasalarida ko'proq amaliy mashg'ulotlar va amaliyot kurslarini tashkil etish, shuningdek, soha mutaxassislarni tayyorlashda interaktiv metodlar va simulatsiyalarni qo'llash muhimdir. Shuningdek, ish beruvchilar va ta'lim muassasalarining hamkorligini yanada mustahkamlash kerak.

6. Xalqaro tajriba va metodlardan foydalanish

Xalqaro tajriba, ilg'or texnologiyalar va ilg'or davlatlarning tajribasini o'rganish zarur. Qurilish va arxitektura sohalarda ilg'or davlatlar tomonidan

qo'llanilayotgan malaka oshirish dasturlari va treninglardan foydalanish, kadrlar salohiyatini oshirishda katta yordam beradi.

7. Zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish

Qurilish va arxitektura sohalarda ishlovchi mutaxassislarga yangi texnologiyalarni o'rgatish, ularning ish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, qurilishda BIM (Building Information Modeling) texnologiyasini joriy etish, 3D bosib chiqarish texnologiyalarini va avtomatizatsiya tizimlarini o'rganish, shuningdek, kommunal tizimlarida aqlli shahar texnologiyalarini qo'llash mutaxassislarni yangi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi.

8. Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish

Soha xodimlari uchun malaka oshirish, qayta tayyorlash va sertifikatlash dasturlarini tashkil etish zarur. Bu dasturlar orqali soha mutaxassislari yangi bilimlarni egallash, texnologiyalarni o'rganish va zamonaviy ish sharoitlariga moslashishi mumkin. Shuningdek, kadrlarning uzoq muddatli professional o'sishini ta'minlash maqsadida o'zini-o'zi rivojlantirish imkoniyatlari ham yaratish kerak.

9. Yoshlarni soha mutaxassisligi bo'yicha jalb etish

Qurilish va arxitektura sohalarida ishchi kuchini ta'minlashda yoshlarni jalb etish muhimdir. Bu sohalarga qiziqish uyg'otish, professional o'qitish va ularni amaliyotga tayyorlash yosh mutaxassislarning ishga joylashishini osonlashtiradi. Shuningdek, malakali mutaxassislar uchun motivatsiya tizimini yaratish, rag'batlantirish va ish sharoitlarini yaxshilash yoshlar o'rtasida bu sohalarga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Qurilish va arxitektura sohalarda kadrlarni tayyorlash va ularning salohiyatini oshirish, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. 1.www.gov.uz. (O'zbekiston Respublikasi xukumatining rasmiy sayti)
2. 2.www.mjko.uz (O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi)
3. 3.www.minstroy.uz (O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi).